



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



ISSN: 2992-8982 <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA	34
Abdovaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	



O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi

Xalqaro bank ishi fakulteti magistranti

ORCID: 0009-0006-4054-5234

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi va uning pul massasi nazorati samaradorligiga ta'siri tahlil qilinadi. So'nggi yillarda bank kartalari, mobil ilovalar, to'lov terminallari va elektron hisob-kitob vositalarining kengayishi pul muomalasi tarkibida muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotning maqsadi naqdsiz to'lovlar hajmining ortishi pul oqimlarining shaffofligi, naqd pulga bo'lgan talab, M2 pul agregati tarkibi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar nazorat imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda statistik, qiyosiy, dinamik va tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi bank tizimi orqali harakatlanadigan pul oqimlarini ko'paytirishi, naqdashtirish darajasini kamaytirishi hamda pul massasini monitoring qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, pul massasi nazoratining samaradorligi faqat naqdsiz to'lovlar ulushiga emas, balki kreditlash hajmi, depozitlar dinamikasi, bank tizimi likvidligi va monetar siyosat instrumentlarining ta'sirchanligiga ham bog'liq ekanini asoslandi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda naqdsiz to'lov infratuzilmasini rivojlantirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va pul-kredit siyosati samaradorligini kuchaytirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: naqdsiz to'lovlar, pul massasi, M2 pul agregati, monetar siyosat, Markaziy bank, bank kartalari, naqdashtirish darajasi, elektron to'lovlar, moliyaviy infratuzilma, pul muomalasi.

Abstract. This article analyzes the increase in the share of cashless payments in Uzbekistan and its impact on the effectiveness of money supply control. In recent years, the expansion of bank cards, mobile applications, payment terminals, and electronic settlement instruments has led to significant changes in the structure of money circulation. The purpose of the study is to determine how the growth of cashless payments affects the transparency of cash flows, demand for cash, the structure of the M2 monetary aggregate, and the monetary control capabilities of the Central Bank of Uzbekistan. Statistical, comparative, dynamic, and structural analysis methods were used in the research. The results show that the increase in the share of cashless payments contributes to the growth of financial flows moving through the banking system, reduces the level of cash withdrawal, and expands the possibilities for monitoring the money supply. At the same time, it is substantiated that the effectiveness of money supply control depends not only on the share of cashless payments but also on lending volume, deposit dynamics, banking system liquidity, and the effectiveness of monetary policy instruments. The findings of the study provide a scientific and practical basis for developing cashless payment infrastructure, improving financial literacy, and strengthening the effectiveness of monetary policy in Uzbekistan.

Key words: cashless payments, money supply, M2 monetary aggregate, monetary policy, Central Bank, bank cards, cash withdrawal level, electronic payments, financial infrastructure, money circulation.



Аннотация. В данной статье анализируется рост доли безналичных платежей в Узбекистане и его влияние на эффективность контроля денежной массы. В последние годы расширение использования банковских карт, мобильных приложений, платежных терминалов и электронных средств расчетов приводит к существенным изменениям в структуре денежного обращения. Цель исследования заключается в определении влияния увеличения объема безналичных платежей на прозрачность денежных потоков, спрос на наличные деньги, структуру денежного агрегата M2 и возможности монетарного контроля Центральный банк Республики Узбекистан. В исследовании использованы статистические, сравнительные, динамические и структурные методы анализа. Результаты анализа показали, что увеличение доли безналичных платежей способствует росту денежных потоков, проходящих через банковскую систему, снижению уровня обналичивания и расширению возможностей мониторинга денежной массы. Вместе с тем обосновано, что эффективность контроля денежной массы зависит не только от доли безналичных платежей, но и от объема кредитования, динамики депозитов, ликвидности банковской системы и эффективности инструментов монетарной политики. Результаты исследования служат научно-практической основой для развития инфраструктуры безналичных платежей, повышения финансовой грамотности и усиления эффективности денежно-кредитной политики в Узбекистане.

Ключевые слова: безналичные платежи, денежная масса, денежный агрегат M2, монетарная политика, Центральный банк, банковские карты, уровень обналичивания, электронные платежи, финансовая инфраструктура, денежное обращение.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy xizmatlar bozorining raqamlashtirilishi, bank kartalari, mobil ilovalar, QR-to'lovlar va elektron hamyonlardan foydalanish ko'lamining kengayishi natijasida naqdsiz to'lovlar ulushi izchil oshib bormoqda. Ushbu jarayon nafaqat aholining kundalik hisob-kitob madaniyatini o'zgartirmoqda, balki pul muomalasi, bank tizimi likvidligi, depozitlar harakati va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar nazorat mexanizmlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Naqdsiz to'lovlar hajmining ortishi pul oqimlarining bank tizimi orqali harakatlanishini kuchaytiradi, bu esa iqtisodiyotdagi pul massasini kuzatish, tahlil qilish va tartibga solish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, M2 pul agregati tarkibida naqd pullar ulushining kamayishi va naqdsiz mablag'lar salmog'ining ortishi pul-kredit siyosati samaradorligini baholashda muhim indikatorlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda bank kartalariga tushgan mablag'lar 2023-yilga nisbatan 244,7 trln so'mga yoki 31 foizga ko'paygan. Shu bilan birga, bank kartalariga kelib tushgan mablag'larni naqdlashtirish darajasi 2023-yildagi 24,0 foizdan 2024-yilda 21,8 foizgacha qisqargan. Bu holat aholining kartadagi mablag'larni tobora ko'proq naqdsiz shaklda sarflayotganini hamda naqd pulga bo'lgan nisbiy ehtiyoj pasayib borayotganini ko'rsatadi [1]. Mazkur tendensiya pul massasi tarkibida ham o'z aksini topadi: iqtisodiyotdagi pul oqimlarining katta qismi bank hisobvaraqlari va elektron to'lov kanallari orqali harakatlangani sari Markaziy bank uchun ularni monitoring qilish, likvidlik hajmini baholash va monetar instrumentlar orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyati ortadi.

Naqdsiz to'lovlarning kengayishi pul massasi nazoratiga ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, elektron to'lovlar orqali amalga oshirilgan operatsiyalar bank tizimida qayd etiladi, bu esa pul oqimlarining shaffofligini oshiradi va yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirishga xizmat qiladi. Ikkinchi tomondan, naqdsiz to'lovlar hajmining oshishi o'z-o'zidan pul massasini avtomatik ravishda kamaytirmaydi, chunki pul massasi kreditlar, depozitlar, bank tizimi likvidligi, davlat xarajatlari va aholining jamg'arma xatti-harakatlari bilan ham bog'liq. Shuning uchun ushbu mavzuni faqat to'lov tizimlari rivoji doirasida emas, balki monetar siyosat samaradorligi, pul agregatlari tarkibi va iqtisodiyotdagi pul aylanish tezligi bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

2025-yil yanvar–iyun oylarida ham naqdsiz to'lovlar ulushi ortishda davom etgan. Markaziy bank sharhiga ko'ra, ushbu davrda umumiy pul tushumlarida terminal orqali tushumlar ulushi 2024-yilning mos davridagi 41 foizdan 43 foizga oshgan, savdo va xizmatlar sohasida esa bu ko'rsatkich 45 foizdan 48 foizgacha ko'tarilgan. Shuningdek, bank kartalariga kelib tushgan mablag'larning naqdlashtirilgan qismi 2023-yildagi 24 foiz va 2024-yildagi 23 foizdan 2025-yilda 19 foizgacha kamaygan [2]. Bu raqamlar naqdsiz to'lovlar aholining real iste'mol amaliyotida tobora mustahkam o'rin egallayotganini va pul muomalasida tarkibiy siljish yuz berayotganini tasdiqlaydi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasi nazorati samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatayotgani hali alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Amaliyotda naqdsiz hisob-kitoblarning kengayishi Markaziy bank uchun statistik kuzatuv, likvidlikni boshqarish va pul-kredit siyosati signallarini uzatish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Biroq bu jarayonning samaradorligi to'lov infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, aholining moliyaviy savodxonligi, bank xizmatlariga ishonch, hududlar kesimidagi raqamli tafovutlar va naqd pulga bo'lgan mavsumiy talab kabi omillarga ham bog'liq. Shu sababli naqdsiz



to'lovlar ulushining oshishini pul massasi nazoratining yagona omili sifatida emas, balki monetar boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasi tarkibi va uni nazorat qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatayotganini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotda naqdsiz to'lovlar hajmi, bank kartalariga tushgan mablag'lar, naqdlashtirish darajasi, terminal orqali tushumlar ulushi va pul massasidagi naqd pullar salmog'i o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Natijada naqdsiz to'lovlarning kengayishi pul oqimlarini shaffoflashtirishi, bank tizimi orqali nazorat qilinadigan mablag'lar ulushini oshirishi va Markaziy bankning monetar siyosat instrumentlari samaradorligini kuchaytirishi mumkinligi asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Naqdsiz to'lovlar va pul massasi nazorati masalasi iqtisodiy adabiyotlarda asosan to'lov tizimlari modernizatsiyasi, elektron pullar, bank tizimi likvidligi va monetar siyosat uzatish mexanizmi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, elektron to'lov vositalarining kengayishi an'anaviy naqd pul muomalasini qisqartirib, pul oqimlarining bank tizimi orqali harakatlanishini kuchaytiradi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uchun pul agregatlari tarkibini kuzatish, iqtisodiyotdagi likvidlik darajasini baholash va monetar instrumentlar ta'sirini aniqroq yo'naltirish imkonini beradi. Xususan, O. Durgun va M. C. Timur elektron to'lovlar markaziy banklar faoliyatiga, pul-kredit siyosati instrumentlariga va naqd pul emissiyasi vazifasiga ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. Ularning yondashuviga ko'ra, elektron to'lovlar rivojlanishi naqd pulga talabni kamaytirishi mumkin, biroq bu jarayon markaziy bank nazoratining zaiflashishiga emas, balki nazorat mexanizmlarini raqamli muhitga moslashtirish zaruratiga olib keladi [3].

Naqdsiz to'lovlarning pul massasiga ta'siri bo'yicha empirik tadqiqotlarda elektron pul, bank kartalari, mobil to'lovlar va foiz stavkalari kabi omillar muhim o'zgaruvchilar sifatida olinadi. R. Hasanah va M. I. Hasmarini Indoneziya tajribasi asosida 2016–2022-yillar ma'lumotlarini tahlil qilib, qisqa muddatda inflyatsiya, bank kartalari orqali operatsiyalar hajmi va yalpi ichki mahsulot pul massasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Uzoq muddatda esa elektron pul, kredit karta operatsiyalari, ATM va debit karta operatsiyalari hamda foiz stavkalari pul massasiga sezilarli ta'sir qilishi ko'rsatilgan [4]. Ushbu yondashuv O'zbekiston sharoitida ham naqdsiz to'lovlar ulushi, bank kartalariga tushumlar, naqdlashtirish darajasi va M2 pul agregati tarkibi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish mumkinligini asoslaydi.

So'nggi xalqaro tadqiqotlarda raqamli to'lovlar nafaqat pul massasi tarkibiga, balki iqtisodiy shaffoflik va rasmiy sektor kengayishiga ham ta'sir qilishi ta'kidlanadi. A. Aguilar, Jon Frost, R. Guerra, Steven Kamin va Alexandre Tombini tomonidan 101 ta mamlakat bo'yicha olib borilgan tadqiqotda raqamli to'lovlardan foydalanishning oshishi iqtisodiy o'sish, moliyaviy inklyuziya va norasmiy bandlikning qisqarishi bilan bog'liq ekani ko'rsatilgan. Mualliflar raqamli to'lovlar operatsiyalar bo'yicha "iz" qoldirishi sababli yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga xizmat qilishi mumkinligini asoslaydi [5]. Bu jihat O'zbekiston uchun ham dolzarb, chunki naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi savdo va xizmatlar sohasidagi pul oqimlarini bank tizimida qayd etish imkonini kengaytiradi.

Naqdsiz to'lovlar va monetar siyosat uzatish mexanizmi o'rtasidagi bog'liqlik P. Liang, M. Sampaio va S. Sarkisyan tadqiqotida yanada chuqurroq yoritilgan. Mualliflar Braziliyaning Pix tezkor to'lov tizimi misolida raqamli to'lovlar banklarning depozit bozorida ustunligini pasaytirishi va foiz stavkalari bo'yicha monetar siyosat signallarining bank tizimiga tezroq o'tishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli to'lovlar banklar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirib, depozitlar va kreditlar kanali orqali pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishi mumkin [6]. Ushbu xulosa O'zbekiston sharoitida naqdsiz to'lovlar rivojlanishi Markaziy bankning pul massasi ustidan nazoratini faqat statistik kuzatuv darajasida emas, balki monetar siyosat ta'sirchanligi nuqtayi nazaridan ham baholash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasini nazorat qilishda ikki tomonlama ahamiyatga ega. Birinchidan, u pul oqimlarining bank tizimi orqali harakatlanishini kuchaytirib, Markaziy bank uchun statistik monitoring imkoniyatlarini oshiradi. Ikkinchidan, u bank depozitlari, to'lov tizimlari, kreditlash faolligi va foiz stavkalari orqali monetar siyosat uzatish mexanizmiga ta'sir qiladi. Shu sababli O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishini faqat to'lov tizimlari rivoji sifatida emas, balki pul massasi nazorati samaradorligini kuchaytiruvchi muhim institutsional omil sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi va pul massasi nazorati samaradorligiga ta'siri statistik, qiyosiy va tahliliy yondashuvlar asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosi naqdsiz hisob-kitoblar hajmi, bank kartalari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar, terminal tushumlari, naqdlashtirish darajasi hamda M2 pul agregati tarkibidagi o'zgarishlarni o'zaro bog'liq holda baholashga qaratildi. Bunda asosiy e'tibor naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul oqimlarining bank tizimi orqali harakatlanishiga, naqd pulga bo'lgan



talabning pasayishiga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan pul massasini nazorat qilish imkoniyatlarining kengayishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga qaratildi.

Tadqiqotda birinchi navbatda dinamik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu usul orqali naqdsiz to'lovlar hajmi, bank kartalariga tushgan mablag'lar, terminal orqali tushumlar ulushi va naqd pulga bo'lgan talabning yillar kesimidagi o'zgarishi tahlil qilindi. Dinamik tahlil naqdsiz to'lovlarning faqat hajm jihatidan emas, balki pul muomalasi tarkibiga ta'siri nuqtayi nazaridan ham baholash imkonini beradi. Pul massasi tarkibini o'rganishda xalqaro metodologik yondashuvlarga tayanildi, chunki monetar statistikada pul agregatlari, depozitlar, naqd pullar va boshqa moliyaviy majburiyatlarni yagona tasnif asosida tahlil qilish muhim hisoblanadi. Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan ishlab chiqilgan monetar va moliyaviy statistika qo'llanmasida pul-kredit statistikasi makroiqtisodiy tahlil, monetar siyosat va moliyaviy barqarorlikni baholash uchun muhim metodologik asos sifatida ko'rsatiladi [7].

Shuningdek, tadqiqotda qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Bu usul orqali naqdsiz to'lovlar ulushi oshgan davrlardagi pul massasi tarkibi, naqd pul ulushi va bank tizimidagi mablag'lar harakati o'zaro solishtirildi. Qiyosiy tahlil naqdsiz hisob-kitoblarning pul massasi nazoratiga ijobiy ta'sirini aniqlash bilan birga, ushbu ta'sirning chegaralarini ham ko'rsatishga xizmat qiladi. Chunki naqdsiz to'lovlar hajmining oshishi pul oqimlarini shaffoflashtirsa-da, pul massasining umumiy hajmi kreditlash, depozitlar, foiz stavkalari, davlat xarajatlari va iqtisodiy faollik kabi boshqa omillar ta'sirida ham shakllanadi. Shu sababli tadqiqotda naqdsiz to'lovlar pul massasi nazoratining yagona omili sifatida emas, balki monetar boshqaruv tizimining muhim tarkibiy elementi sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida tarkibiy tahlil usuli ham qo'llanildi. Bu usul yordamida pul massasining ichki tarkibi, ya'ni naqd pullar va naqdsiz mablag'lar ulushidagi o'zgarishlar o'rganildi. Mazkur yondashuv orqali naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi M2 pul agregatidagi naqd pullar salmog'ining kamayishi va bank hisobvaraqlaridagi mablag'lar ulushining ortishi bilan qanday bog'liqligi tahlil qilindi. Bunda pul oqimlarining bank tizimida qayd etilishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik monitoring imkoniyatlarini oshirishi, likvidlik holatini baholashni yengillashtirishi va monetar siyosat qarorlarini asoslashda muhim ma'lumot bazasini shakllantirishi nazarda tutildi.

Tadqiqotda induktiv va deduktiv tahlil usullari ham qo'llanildi. Induktiv yondashuv asosida O'zbekiston to'lov tizimidagi amaliy o'zgarishlar, ya'ni bank kartalari, mobil ilovalar va terminal to'lovlari bo'yicha kuzatilgan tendensiyalardan umumiy ilmiy xulosalar chiqarildi. Deduktiv yondashuv orqali esa monetar nazariya va xalqaro tajribada shakllangan umumiy qoidalar O'zbekiston sharoitiga tatbiq etildi. Xususan, raqamli moliyaviy xizmatlar va raqamli to'lovlar moliyaviy inklyuziyani kengaytirishi, aholining rasmiy moliyaviy tizimdan foydalanish darajasini oshirishi hamda to'lov operatsiyalarining hisobga olinishini kuchaytirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Jahon bankining Global Findex ma'lumotlar bazasi raqamli to'lovlar va moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlarini o'rganishda xalqaro qiyosiy tahlil uchun muhim manba sifatida e'tirof etiladi [8].

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi naqdsiz to'lovlar rivojlanishini faqat texnologik yoki bank xizmatlari doirasida emas, balki pul massasi nazorati, monetar siyosat samaradorligi va iqtisodiyotdagi pul oqimlari shaffofligi bilan bog'liq holda baholashga yo'naltirildi. Tanlangan metodlar mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini birgalikda o'rganish imkonini beradi. Shu asosda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan pul massasini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishi, biroq ushbu jarayonning yakuniy samaradorligi bank tizimi barqarorligi, aholining moliyaviy savodxonligi, raqamli infratuzilma va monetar instrumentlarning ta'sirchanligiga bog'liq ekani aniqlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi, avvalo, bank kartalari, to'lov terminallari, bankomat va masofaviy to'lov infratuzilmasining kengayishi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-iyun holatiga muomaladagi bank kartalari soni 63,8 mln donani, o'rnatilgan to'lov terminallari soni 426,1 ming donani, bankomat va infokiosklar soni esa 35,8 ming donani tashkil etgan. 2025-yil yanvar-may oylarida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar 175,7 trln so'mga yetgani naqdsiz hisob-kitoblar iqtisodiyotda faol qo'llanilayotganini ko'rsatadi [9].

1-jadval. O'zbekistonda naqdsiz to'lov infratuzilmasi va pul muomalasi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Davr / sana	Miqdor	Tahliliy mazmuni
Muomaladagi bank kartalari soni	2025-yil 1-iyun	63,8 mln dona	Aholi va tadbirkorlik subyektlarining bank kartalaridan foydalanish imkoniyati kengaygan
O'rnatilgan to'lov terminallari soni	2025-yil 1-iyun	426,1 ming dona	Savdo va xizmatlar sohasida naqdsiz to'lov qabul qilish infratuzilmasi kuchaygan



Bankomat va infokiosklar soni	2025-yil 1-iyun	35,8 ming dona	Bank xizmatlariga masofaviy va avtomatlashtirilgan kirish imkoniyati oshgan
To'lov terminallari orqali tushumlar	2025-yil yanvar–may	175,7 trln so'm	Pul oqimlarining muhim qismi bank tizimi orqali qayd etilmoqda
Umumiy pul tushumlarida terminal va mobil ilovalar ulushi	2025-yil I chorak	43%	Naqdsiz to'lovlar umumiy pul tushumlarida sezilarli ulushga ega bo'lgan
Umumiy pul tushumlarida terminal va mobil ilovalar ulushi	2026-yil I chorak	47%	Naqdsiz to'lovlar ulushi 4 foiz bandga oshgan
Savdo va xizmatlarda terminal va mobil to'lovlar ulushi	2026-yil I chorak	51%	Savdo va xizmat ko'rsatishda naqdsiz to'lovlar ustunlashib bormoqda
Naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi	2026-yil 1-aprel	16,9%	Pul massasida naqd pul ulushi pasaygan, nazorat qilinadigan bank pullari salmog'i oshgan

Jadvaldan ko'rinadiki, naqdsiz to'lov infratuzilmasining kengayishi pul oqimlarini bank tizimiga ko'proq jalb qilmoqda. Bu holat O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uchun muhim ahamiyatga ega, chunki naqd pul shaklida harakatlanadigan mablag'larni kuzatish nisbatan murakkab bo'lsa, bank kartalari, terminal va mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan to'lovlar elektron tizimlarda qayd etiladi. Natijada pul massasining harakati, to'lovlar hajmi, banklardagi mablag'lar oqimi va likvidlik holatini tahlil qilish imkoniyati kengayadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi naqd pulga bo'lgan nisbiy talabni kamaytirish orqali pul massasi tarkibiga ta'sir ko'rsatmoqda. 2026-yil yanvar–mart oylarida umumiy pul tushumlari 316 trln so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 35 foizga oshgan. Shu davrda banklarga umumiy pul tushumlarida terminal va mobil ilovalar orqali tushumlar ulushi 2025-yil yanvar–mart oylaridagi 43 foizdan 2026-yil yanvar–mart oylarida 47 foizgacha ko'tarilgan. Savdo va xizmatlar sohasida esa bu ko'rsatkich 49 foizdan 51 foizgacha oshgan [10].

Bu natijalar naqdsiz to'lovlar faqat to'lov qulayligini oshiruvchi vosita emas, balki pul massasini nazorat qilishda ham muhim omil ekanini ko'rsatadi. Naqdsiz hisob-kitoblar kengaygani sari iqtisodiyotdagi mablag'larning katta qismi bank hisobvaraqlari orqali harakatlanadi. Bu esa M2 pul agregati tarkibida bank depozitlari va elektron mablag'lar rolini kuchaytiradi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul massasini tartibga solishda foiz stavkalari, majburiy zaxiralar, likvidlik operatsiyalari va bank tizimi monitoringi orqali nisbatan aniqroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, bank kartalariga kelib tushgan mablag'larning naqdlashtirilish darajasi pasayib borayotgani ham muhim natija hisoblanadi. 2026-yilning I choragida bank kartalariga kirim qilingan mablag'lar hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 1,3 barobarga oshgan. Shu davrda bank kartalaridagi 71 trln so'm mablag'lar naqdlashtirilgan bo'lib, bu kartalarga tushgan mablag'larning 17 foizini tashkil etgan va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2 foiz bandga kamaygan [10]. Bu holat aholining kartadagi mablag'larni naqdlashtirib olishdan ko'ra, ularni bevosita naqdsiz to'lovlar orqali sarflashga ko'proq o'tayotganini bildiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasi nazorati samaradorligiga uch yo'nalishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, bank tizimi orqali o'tadigan pul oqimlari hajmi ortadi va bu pul harakatining shaffofligini kuchaytiradi. Ikkinchidan, naqd pulga bo'lgan talabning nisbiy kamayishi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining naqd pul emissiyasi, inkassatsiya va bank kassalaridagi likvidlikni boshqarish xarajatlarini optimallashtirishga yordam beradi. Uchinchidan, naqdsiz to'lovlar kengaygani sari monetar siyosat instrumentlari bank tizimi orqali iqtisodiyotga tezroq va aniqroq uzatiladi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasini avtomatik ravishda kamaytiradi degan xulosani bermaydi. Chunki pul massasining umumiy hajmi faqat to'lov shakliga emas, balki kreditlash sur'atlari, depozitlar dinamikasi, davlat xarajatlari, valyuta operatsiyalari va iqtisodiy faollik darajasiga ham bog'liq. Demak, naqdsiz to'lovlar pul massasi nazoratining texnik va axborot bazasini kuchaytiradi, ammo monetar nazoratning yakuniy samaradorligi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining foiz siyosati, likvidlikni tartibga solish mexanizmlari va bank tizimi barqarorligi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Umumiy natija sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasini nazorat qilish jarayonini yanada shaffof, tezkor va ma'lumotlarga asoslangan holatga olib kelmoqda. Naqd pullarning umumiy pul massasidagi ulushi 2026-yil 1-aprel holatiga 16,9 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 foiz bandga pasaygani pul muomalasi tarkibida naqdsiz shakllarning ahamiyati ortayotganini tasdiqlaydi [10]. Shu sababli naqdsiz to'lovlar rivoji O'zbekiston monetar siyosatida pul massasini kuzatish va boshqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida baholanishi mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul massasi nazorati samaradorligini kuchaytiruvchi muhim omil ekanini ko'rsatdi. Bank kartalari, to'lov terminallari, mobil ilovalar va elektron to'lov tizimlarining kengayishi natijasida pul oqimlarining katta qismi bank tizimi orqali harakatlanmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uchun pul massasini kuzatish, naqd pulga bo'lgan talabni baholash, likvidlik holatini tahlil qilish va monetar siyosat instrumentlarini samarali qo'llash imkoniyatlarini oshiradi. Ayniqsa, naqdlashtirish darajasining pasayishi va naqdsiz tushumlar ulushining ortishi aholining elektron hisob-kitoblarga moslashib borayotganini hamda pul muomalasida tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda pul massasi nazorati samaradorligini yanada oshirish uchun naqdsiz to'lov infratuzilmasini hududlar kesimida kengaytirish, kichik biznes subyektlari uchun elektron to'lovlarni qabul qilish sharoitlarini yengillashtirish, aholining moliyaviy va raqamli savodxonligini oshirish hamda naqdsiz to'lovlar bo'yicha statistik monitoring tizimini takomillashtirish zarur. Demak, naqdsiz to'lovlar ulushining oshishi pul oqimlarining shaffofligini ta'minlash, naqd pulga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining monetar nazorat imkoniyatlarini kuchaytirish orqali mamlakatda pul-kredit siyosati samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2024-yil uchun yillik hisobot [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. — https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Naqd pul muomalasi bo'yicha qisqacha sharh: 2025-yil yanvar–iyun [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. — https://cbu.uz/upload/iblock/a0d/10bc2hdx5ds4vwwxco8hzqx4w3rw4ge3/Sharx-lotincha-Naqd-pul-muomalasi_.pdf
3. Ö. Durgun, M. C. Timur. The effects of electronic payments on monetary policies and central banks // *Procedia – Social and Behavioral Sciences*. — 2015. — Vol. 195. — P. 680–685. — DOI: 10.1016/j.sbspro.2015.06.271.
4. R. Hasanah, M. I. Hasmarini. Analysis effect of cashless payments in the digitalization era on money supply in Indonesian // *Proceeding Medan International Conference on Economic and Business*. — 2023. — Vol. 1. — DOI: 10.30596/miceb.v1i0.216.
5. A. Aguilar, Jon Frost, R. Guerra, Steven Kamin, Alexandre Tombini. Digital payments, informality and economic growth // *BIS Working Papers*. — 2024. — No. 1196. — Basel: Bank for International Settlements, 2024. — URL: <https://www.bis.org/publ/work1196.pdf>
6. P. Liang, M. Sampaio, S. Sarkisyan. Digital payments and monetary policy transmission // *Fisher College of Business Working Paper Series*. — 2025. — Dice Center WP 2024-14; Fisher College of Business WP 2024-03-14. — URL: https://www.bancaditalia.it/pubblicazioni/altri-atti-seminari/2025/Sarkisyan_paper.pdf
7. International Monetary Fund. *Monetary and Financial Statistics Manual and Compilation Guide*. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2016. — 432 p. — URL: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/mfs/manual/>
8. Asli Demirgüç-Kunt, Leora Klapper, Dorothe Singer, Saniya Ansar. *The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19*. — Washington, D.C.: World Bank, 2022. — 192 p. — DOI: 10.1596/978-1-4648-1897-4. — URL: <https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex>
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil 1-iyun holatiga muomaladagi bank plastik kartalari, terminallar, bankomat va infokiosklar hamda 2025-yil yanvar–may oylari davomida to'lov terminallari orqali tushgan tushumlar to'g'risida ma'lumot [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025. — URL: <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/2550444/>
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Naqd pul muomalasi bo'yicha sharh. 2026-yil I chorak yakunlari bo'yicha [Elektron resurs]. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. — URL: https://cbu.uz/upload/iblock/a92/rvmy1uw4u34nedr0usab1vvajmw9qdv/Naqd-pul-muomalasi-bo_yicha-sharh-24.04.26-1_.pdf



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
